



Received: October 23, 2025
Accepted: December 22, 2025
Available online: December 25, 2025

Xilolaxon Bakirova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekistan

Khilolakhon Bakirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ms.khilola@bk.ru
ORCID iD: 0000-0002-5801-2472

SOHAVIY TARJIMONLARNI TAYYORLASHDA LEKSIK MINIMUMNI TANLASH ASOSLARI

PRINCIPLES FOR SELECTING A LEXICAL MINIMUM IN THE TRAINING OF SPECIALIZED TRANSLATORS

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot sohaga yo'naltirilgan tarjimonlarni tayyorlash jarayonida leksik minimumni tanlashning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarjimonlar uchun zarur bo'lgan umumiy, kasbiy va sohaviy terminologik birliklarni ilmiy mezonlar asosida aniqlash hamda ularni bosqichma-bosqich taqdim etish modelini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilandi: leksik minimum tushunchasining lingvodidaktik asoslarini yoritish; CEFR talablari, mahalliy va horijiy standartlar va tarjimashunos olimlarning qarashlarini tahlil qilish; terminlarni tanlash mezonlarini aniqlash; texnika sohasi bo'yicha leksik minimumni shakllantirish va kurslar kesimida taqsimlash. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy-nazariy tahlil, korpus lingvistikasi, statistik qayta ishlash, taqqoslama metod va tajriba-sinov ishlari qo'llanildi. Korpus asosida terminlarning chastotasi, semantik yadroga tegishliligi va kommunikativ zarurati aniqlanib, ulardan zaruriy minimum shakllantirildi. Tajriba-sinov ishlari respublikaning to'rt oliy ta'lim muassasasida o'tkazilib, talabalarning sohaviy terminlarga ega bo'lish darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjima ta'limida maxsus leksik minimumning mavjud emasligi bo'lajak tarjimonlarning kasbiy matnlarni tushunish va tarjima qilish ko'nikmalarida sezilarli bo'shliqlarni yuzaga keltiradi. Texnika sohasi uchun ishlab chiqilgan leksik minimum 1-kursdan boshlab magistratura bosqichigacha

ABSTRACT

The present research is devoted to studying the theoretical and methodological foundations of selecting a lexical minimum in the process of training field-oriented translators. The aim of the study is to identify, on the basis of scientific criteria, the general, professional and domain-specific terminological units required for prospective translators and to develop a model for presenting them step by step. To achieve this aim, the following tasks were set: to elucidate the lingvodidactic foundations of the concept of lexical minimum; to analyse CEFR requirements, national standards and the views of translation scholars; to determine the criteria for selecting terms; and to shape a lexical minimum for the technical sphere and distribute it by stages and years of study.

The research methods include theoretical analysis, corpus linguistics, statistical processing, comparative method and experimental teaching. On the basis of a specialised corpus, the frequency, relevance to the semantic core and communicative necessity of terms were identified, and a required minimum was formed from them. Experimental work was carried out at four higher education institutions of the republic, where students' mastery of domain-specific terminology was assessed.

The results show that the absence of a specially developed lexical minimum in translator training leads to significant gaps in understanding and rendering professional texts. For the technical sphere, a lexical minimum was designed as a

bosqichma-bosqich oshib boruvchi tizim sifatida taklif qilindi va u talabalarning umumiy soʻz boyligi bilan birga sohaviy terminologik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, leksik minimumni tanlash tarjimon tayyorlashning strategik bosqichi boʻlib, u samarali kommunikativ kompetensiya, aniq terminologik bilim va amaliy tarjima malakasini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Taklif etilgan model boshqa sohalar boʻyicha sohaviy tarjimonlarni tayyorlash uchun ham ilmiy-metodik asos boʻlib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: leksik minimum, sohaviy tarjima, tarjimonlarni tayyorlash, terminologik kompetensiya, korpus lingvistikasi, CEFR standartlari, sohaviy terminologiya, kommunikativ kompetensiya, tarjima taʼlimi, muhandislik tarjimasi.

system that gradually increases from the first year up to the master's level and supports the development of both general vocabulary and domain-specific terminological competence.

In conclusion, selecting a lexical minimum is a strategic stage in translator training, as it plays a decisive role in forming effective communicative competence, accurate terminological knowledge and practical translation skills. The proposed model can serve as a theoretical and methodological basis for developing lexical minima for translators in other specialised fields as well.

Key words: lexical minimum, domain-specific translation, translator training, terminological competence, corpus linguistics, CEFR standards, domain-specific terminology, communicative competence, translation education, engineering translation.

KIRISH

Tarjima taʼlimida leksik minimumni shakllantirish sohaga yoʻnaltirilgan tarjimonni tayyorlashning boshlangʻich va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki tarjimonning kasbiy mahorati, avvalo, uning lugʻat boyligi va terminologik bazasiga bogʻliq. Xususan, mutaxassis tarjimon sohaga tegishli matnlarni izchil, aniq va mazmunan toʻliq tarjima qila olishi uchun minimal, lekin zaruriy termin va iboralarni mukammal egallashi zarur [Комиссаров В.Н., 1990].

Boʻlajak mutaxassisning kasbiy faoliyatiga oid terminologiyani kuchli egallashning obyektiv imkoniyatlari leksik materialning miqdori va sifatiga bogʻliq. Terminologik minimum universitet talabalariga chet tilda ogʻzaki va yozma nutqda, xususan, mutaxassislik fanining mazmunini oʻzlashtirish davrida oʻz fikrlarini ifoda etish va boshqalarning fikrlarini tushunish imkoniyatini yaratuvchi terminologik lugʻatning asosiy zaxirasini tashkil etadi [Bakirova X.B., 2024].

Chet tillarni oʻrgatish metodikasi mazmunini tashkil etuvchi qator masalalar orasida leksikani tanlash muammosi oldingi oʻrinlardan birini egallaydi. Toʻgʻri tuzilgan oʻquv lugʻati oʻqituvchi uchun zarur qoʻllanma boʻladi, chunki oʻqituvchi bu lugʻat bilan eʼtiborni oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan qatʼiy cheklangan leksika doirasiga qaratadi. Leksik minimum ilmiy asoslangan, izchil bogʻlangan darsliklar yaratishda asos boʻlib xizmat qiladi [Bakirova X.B., 2024].

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimumni aniqlash, tizimlashtirish va uning oʻquv jarayonidagi samaradorligini asoslash maqsadida kompleks ilmiy-metodik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uygʻun holda qoʻllanildi.

Birinchi navbatda, nazariy tahlil metodi asosida til oʻqitish metodikasi, tarji-

mashunoslik va lingvodidaktika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, CEFR standartlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari o'rganildi. Ushbu metod leksik minimum tushunchasining ilmiy talqinini aniqlash va mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish imkonini berdi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali filologik va nofilologik yo'nalishlar uchun belgilangan leksik minimum ko'rsatkichlari, shuningdek, umumiy til kurslari va sohaviy tarjima yo'nalishlari o'rtasidagi farqlar solishtirildi. Bu metod orqali sohaviy tarjimonlar uchun alohida yondashuv zarurligi ilmiy asoslab berildi.

Tadqiqotda muhandislik sohasiga oid matnlar asosida korpus lingvistik tahlil metodi qo'llanildi. Bunda ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar, yo'riqnomalar va darsliklardan tashkil topgan matnlar korpusi shakllantirildi hamda maxsus dasturiy vositalar yordamida terminlarning ishlatilish chastotasi aniqlanib, statistik tahlil qilindi. Natijada eng ko'p uchraydigan va semantik jihatdan muhim terminlar aniqlanib, leksik minimum asosiga olindi.

Kontekstual tahlil metodi yordamida tanlangan terminlarning real matnlardagi qo'llanilishi, semantik xususiyatlari va sohaviy mosligi o'rganildi. Bu jarayon terminlarning nafaqat lug'aviy, balki funksional ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Empirik metodlar doirasida kuzatuv, diagnostik test va tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Bu jarayonda respublikaning to'rtta oliy ta'lim muassasasidagi tarjimonlik yo'nalishi talabalari ishtirokida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Talabalarning sohaviy terminologiya bo'yicha bilim darajasi maxsus ishlab chiqilgan testlar orqali aniqlanib, o'qitishdan oldingi va keyingi natijalar solishtirildi.

Shuningdek, so'rovnoma va suhbat metodlari orqali talabalar va o'qituvchilarning sohaviy leksik minimumga bo'lgan munosabati, mavjud qiyinchiliklar va ehtiyojlar tahlil qilindi. Bu metod natijalarni real o'quv muhiti bilan bog'lashga xizmat qildi.

Olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat tahlili asosida qayta ishlanib, grafik va jadval ko'rinishida umumlashtirildi. Natijada muhandislik sohasi bo'yicha sohaviy tarjimonlar uchun bosqichma-bosqich shakllantirilgan leksik minimum modeli ishlab chiqildi.

Shu tariqa, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimumni ilmiy asosda belgilash, uning pedagogik samaradorligini aniqlash va amaliyotga joriy etish imkonini berdi.

NATIJALAR

Leksik minimum tushunchasi lingvodidaktik adabiyotlarda ko'pincha chet tili o'qitish metodikasi bilan bog'liq holda o'rganilgan. I.A. Zimnyaning ta'rifiga ko'ra, leksik minimum – bu o'quvchi yoki tarjimonning kommunikativ ehtiyojlarini ta'minlaydigan asosiy so'zlar, terminlar va frazeologizmlar majmuasi. Sohaviy tarjimada esa bu minimum faqat umumiy til birliklarini emas, balki tor sohalarga xos maxsus terminlarni ham o'z ichiga oladi [Зимняя И.А., 1991].

Biz bir qator tadqiqot ishlarini, dasturlarni tahlil qilganimizda shunga amin bo'ldikki, CEFR (Common European Framework of Reference) standartlariga ko'ra filologik yo'nalish talabalari uchun leksik minimum quyidagicha taqsimlangan:

- A1–A2 daraja (boshlang'ich) – 1000 – 1500 ta aktiv so'z;
- B1 daraja (o'rta) – 2000 – 2500 ta aktiv so'z;
- B2 daraja (o'rtadan yuqori) – 3000 – 4000 ta aktiv so'z;
- C1–C2 daraja (yuqori) – 5000 va undan ortiq aktiv so'z belgilab berilgan

[<https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/table-1-cefr-3.3-common-reference-levels-global-scale>].

Respublikamiz oliy ta'lim standartlariga ko'ra (OTV me'yoriy hujjatlarida), filologiya bakalavriatida chet til minimumi kamida 4000 – 4500 birlik, shundan 1000 tasi kasbiy va ilmiy terminologiyani tashkil etishi lozim.

Masalan, ingliz filologiyasi talabasi uchun:

- Umumiy muloqot va madaniy so'zlar
- Lingvistika terminlari (phonetics, morphology, syntax...)
- Tarjima nazariyasi terminlari (equivalence, skopos, adaptation...) [O'zbekiston Respublikasining davlat standarti, 2021].

Nofilologik oliy o'quv yurtlari uchun leksik minimum 2500-3000 so'zni tashkil qilishi lozim [Тарнопольский О.Б., 2004]. Bunda 1000 ta so'z bu umumiste'moldagi, kundalik ishlatiladigan leksika – faol va 2000 tasi professional terminlar – nofaol leksikani tashkil etadi [Bakirova X.B., 2024].

Biz tadqiqot ishimiz doirasida leksik minimumni bosqichma-bosqich belgilash va til kompetensiyasini o'lchash metodikasi uchun asosiy ilmiy poydevor bo'lib xizmat qilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, sohaviy tarjima yo'nalishi odatiy til kurslaridan chuqurroq bo'lgani uchun sohaviy terminologiya ham qo'shiladi va quyidagicha taqsimlashni ma'qul ko'rdik:

1-2 kurs (asosiy til ko'nikmalari):

- Umumiy muloqot so'zlari: ~2000 – 2500 so'z;
- Sohaviy terminlardan boshlang'ich minimum: ~300 – 500 termin.

3-4 kurs (kasbiy yo'naltirilgan bosqich):

- Umumiy so'z boyligi: ~4000 – 5000 so'z;
- Filologik va tarjima nazariyasiga oid terminlar: ~800 – 1000 termin.

Magistratura (ilmiy va sohaviy matnlar):

- 7000+ so'z boyligi;
- Tarjima nazariyasi, madaniyatshunoslik terminlari: ~1500 va undan ortiq termin [Nation I.S.P., 2013].

Yuqoridagi aniq raqamlar va fasllar – 2-kurs uchun 2000 – 2500 umumiy so'z + 300 – 500 sohaviy termin, 3-4 kurs uchun 4000 – 5000 + 800 – 1000, magistratura uchun 7000+ + 1500+ – adabiyotlar asosidagi amaliy miqdoriy tavsiyalarni umumlashtirgan konstruktsiya hisoblanadi. Shunda sohaviy tarjimonlar uchun asosiy lik-sik minimum qatoriga qo'shimcha 1500+ sohaga oid termin va terminologik birliklar qoshimcha o'zlashtiriladi. Ya'ni, bu bizning tadqiqot modelimizning metodik muvofiqlashtirilgan pragmatik qiymati bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan manbalar orqali

asoslantiriladi. Quyida mazkur sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimumni batafsil yoritamiz.

Leksik minimum – bu sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy faoliyati va muloqot ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo'lgan minimal so'z va termin birikmalari zaxirasi bo'lib, u tarjimonning kommunikativ hamda kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda tayanch vosita sifatida xizmat qiladi [Nation I.S.P., 2013].

Sohaviy tarjimon aynan shu minimumni o'zlashtirganda:

- oddiy va sohaviy matnlarni tushunish, asosiy ma'lumotlarni ajratib olish;
- kundalik, madaniy va kasbiy mavzularda fikr bildirish, savollarga aniq javob berish;
- sodda kasbiy hujjatlar, yo'riqnomalar va shartnomalar bilan ishlash hamda ularning mazmunini tarjimada ifodalash darajasiga chiqadi.

Sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimum bosqichma-bosqich shakllantiriladi:

1. Umumiy muloqot leksikasi – kundalik hayot va muloqotda eng ko'p ishlatiladigan so'zlar (salomlashish, vaqt, sonlar, transport, xizmatlar) ni o'z ichiga oladi. Bu bosqich tarjimonning asosiy kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Madaniy va ijtimoiy leksika – jamiyatdagi munosabatlar, madaniyatlararo farqlar, kasblar, an'analar, xizmat ko'rsatish tizimiga oid so'z va so'z birikmalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda madaniyatlararo kompetensiya rivojlanadi.

3. Kasbiy va sohaviy leksika – tarjima nazariyasi va lingvistik terminologiya (equivalence, adaptation, skopos theory, source text, target text)ni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda sohaga xos terminologiyani ham qamrab oladi. Masalan:

- Muhandislik sohasi (voltage, turbine, smart grid);
- Huquqiy tarjima (contract, liability, arbitration);
- Tibbiy tarjima (diagnosis, prescription, therapy).

Sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimum o'ziga hos xususiyatlarga ega. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

■ **Kommunikativ va kasbiy ehtiyojga mos tanlanadi.** Tarjimon kundalik muloqot bilan birga kasbiy matnlarni tarjima qilishi kerak, shuning uchun minimumga ko'p ishlatiladigan umumiy so'zlar bilan bir qatorda sohaviy terminologiya ham kiradi.

■ **Darajaviy tizimga bog'lanadi.** CEFR standartiga muvofiq, A2 – B1 bosqichida umumiy muloqot leksikasi yetarli bo'lsa, B2 – C1 darajada kasbiy va ilmiy terminlar ustunlik qiladi.

■ **Aktiv va passiv zaxiraga ajratiladi.** Aktiv leksika – tarjimon bevosita ishlatadigan va tarjima qiladigan terminlar. Passiv leksika – matnda uchraganda anglab olishga yetarli, lekin faol ishlatilmaydigan birliklar.

■ Sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimum bosqichma-bosqich o'qitiladi va quyidagicha sonlarda taqdim etiladi:

1-kurs uchun eng sodda umumiy, boshlang'ich kasbiy minimum taqdim etiladi, talaba:

- Kundalik mavzularda muloqot qila oladi ~ 1500 – 2000 aktiv birlik;

- Tarjima faoliyatiga oid elementar soʻzlarni tushuna boshlaydi (translation, word, text, client, culture va h.k.) ~200 passiv birlik.

2-kurs (asosiy koʻnikmalar):

- Umumiy muloqot soʻzlari ~2000 – 2500 aktiv birlik;
- Boshlangʻich sohaviy terminlar ~300 – 500 passiv birlik.

3-4 kurs (kasbiy yoʻnaltirilgan bosqich):

- Umumiy soʻz boyligi ~4000 – 5000 aktiv birlik;
- Sohaviy va tarjima nazariyasi terminlari ~800 – 1000 passiv birlik.

Magistratura (ilmiy bosqich):

- Umumiy va kasbiy soʻz boyligi 7000 + aktiv birlik;
- Tarjima nazariyasi, sohaviy va madaniyatshunoslik terminlari ~1500+ passiv

birlik.

Demak, sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimum kundalik muloqot ehtiyojidan boshlab, madaniyatlararo va kasbiy sohalarga mos terminologiyani bosqichma-bosqich oʻzlashtirishni taqozo qiladi. Bu jarayon kommunikativ, madaniy va professional tarjimon kompetensiyalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

Quyida mazkur maʼlumotlarni jadval koʻrinishida taqdim etamiz (1 – jadvalga qarang).

1-jadval

Sohaviy tarjimonlar uchun bosqichma-bosqich oʻqitiluvchi leksik minimum

Bosqich	Terminlar soni	Asosiy mazmuni	Maqsad va kompetensiya
1-bosqich (1-kurs)	2000–2500 birlik	Kundalik muloqot leksikasi: vaqt, sonlar, salomlashish, kundalik hayot, hissiyotlar, asosiy feʼllar, sifatlar.	Kundalik mavzulardagi matnlarni tushunish, kundalik suhbatlarda qatnashish, asosiy savollarga javob bera olish.
2-bosqich (2-kurs)	3000–3500 birlik	Madaniy va ijtimoiy leksika + umumiy kasbiy terminlarning kirib keliishi (asosiy tibbiy, iqtisodiy, texnik terminlar).	Ijtimoiy va yarim-kasbiy matnlarni tushunish, umumiy sohaviy tarjima bilan tanishish, asosiy terminologiyani yod olish.
3-bosqich (3-kurs)	4500–5000 birlik	Sohaviy (tibbiy, huquqiy, texnik, iqtisodiy) matnlarda eng koʻp uchraydigan terminlar va iboralar. Tarjima nazariyasining asosiy tushunchalari (equivalence, adaptation, localization).	Sohaviy matnlarni tushunish va tarjima qilish, terminologik izchillikni taʼminlash, kasbiy tarjima loyihalarida ishtirok etish.
4-bosqich (4-kurs)	6000–7000 birlik	Maxsus tarjima terminlari: shartnoma, sud hujjatlari, tibbiy hisobotlar, texnik yoʻriqnomalar, marketing va biznes leksikasi. Tarjima texnologiyalari boʻyicha terminlar (CAT tools, corpora, AI translation).	Professional sohaviy tarjimalar qilish, loyihalarni boshqarish, terminologik bazalar bilan ishlash.

Magistratura bosqichi	8000+ birlik	Ilmiy va professional tarjima leksikasi: kognitiv tarjima nazariyasi, lingvokulturologiya, sun'iy intellekt tarjima vositalari, kompyuter lingvistikasi terminlari.	Ilmiy tadqiqot olib borish, ixtisoslashgan tarjima metodologiyasi yaratish, yuqori darajadagi tahliliy tarjimalar qilish.
------------------------------	--------------	---	---

Izohlar:

- 1–2 kursda umumiy leksika va boshlang'ich sohaviy terminologiya beriladi.
- 3–4 kursdan boshlab kasbiy tarjima uchun maxsus terminlar bloklari (huquqiy, tibbiy, texnik, iqtisodiy) kiritiladi.

• Magistratura bosqichida tarjima texnologiyalari va kompyuter lingvistikasi terminlari (machine translation, localization, post-editing) chuqur o'qitiladi.

Biz tadqiqotimiz doirasida sohaviy tarjimaning texnika sohasi bo'yicha sohaviy tarjimonlar tayyorlashni maqsad qilib oldik. Mazkur maqsadimizga erishish yo'lida bir qator vazifalarni bajardik. Bulardan biri muhandislik sohasi terminlari leksik minimumini tanladik va bo'lajak sohaviy tarjimonlarga bosqichma-bosqich oqitish bo'yicha taqsimlab chiqdik. Biz tanlagan leksik minimum quyidagi hususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi:


– 1-2 kurslarda muhandislik sohasiga oid asosiy umumiy terminlar kiritiladi – bu kundalik mavzudagi matn va yo'riqnomalarni tushunishga yetadi.

– 3-4 kurslarda professional texnik hujjatlar, muhandislik sohasi loyihalari terminologiyasi chuqurroq beriladi.

– Magistratura bosqichida esa innovatsion texnologiyalar va muhandislik sohasi siyosatiga oid ilmiy terminlar qo'shiladi.

Quyida mazkur ma'lumotlarning grafik dizayni ham taqdim etilgan (1 – rasmga qarang).

1-rasm. Muhandislik sohasi bo'yicha tarjimonlar uchun leksik minimum.



Grafikda har bir bosqichda talaba egallashi kerak bo'lgan so'z va terminlar soni ko'rsatilgan:

- 1-kurs: ~2500 birlik
- 2-kurs: ~3500 birlik
- 3-kurs: ~5000 birlik
- 4-kurs: ~7000 birlik
- Magistratura: 8000+ birlik

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, leksik minimum tushunchasi til o'rganishda asosiy muloqot ehtiyojini qondira oladigan so'zlar zaxirasi bo'lib, talaba shu minimumni egallaganida kundalik mavzudagi matnlarni tushunish, asosiy mavzularda fikr bildirish, kasbiy matn bilan ishlash darajasiga chiqadi. Minimum kundalik muloqotdan – sohaviy (tehnika) terminologiyaga qadar bosqichma-bosqich kengayib boradi.

Leksikani soni ma'lum bo'lganidan so'ng uni tanlash va taqsimlash masalasi yotadi. Leksik minimum tanlash har bir oliy o'quv yurti chet til o'qitish tizimi maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi [Bakirova X.B., 2024].

Shunday ekan, tarjimonlarni tayyorlashda oliy o'quv yurtlarida tanlanadigan leksik birliklar – chet til o'qitish maqsadi: aslyatdagi matnni yoki so'zlovchi nutqini va sohaga oid matnni o'qib tushunish hamda asl ma'nosini saqlab qolgan holda tog'ri tarjima qilish, o'z fikrini bayon qila olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish kabilarni amalga oshirishni ko'zda tutishi kerak bo'ladi.

MUNOZARA

Leksik minimum tanlashning mohiyati shundan iboratki, ko'zga ko'rinmaydigan juda ko'p chet til so'zlari va frazeologik so'z birlikmalaridan o'qitishda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun birinchi navbatda o'zlashtirilishi zarur bo'lganlarinigina tanlab olinadi [Миролюбов А.А., 2010].

A.A.Mirolyubov, I.V.Raxmanov, V.S.Tsetlin tahriri ostida nashr etilgan "O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi" kitobida faol va nafaol leksikaning mazmun – mohiyati quyidagicha aniq keltirib berilgan. Unda keltirilishicha har bir kishi o'zi tushunadigan, ammo, odatda, o'z nutqida qo'llamaydigan juda ko'p so'zlarni biladi. Bu so'zlar uning nafaol so'z boyligini tashkil qiladi. U o'z fikrini ifoda etish uchun ancha cheklangan miqdordagi so'zlardan foydalanadi, bu so'zlar uning faol so'z boyligiga kiradi [Bakirova X.B., 2024].

Nafaol tarkibdagi so'zlar eshitishda yoki o'qishda esimizga tushadi. Ulardan ba'zi birlarining ma'nosini, aniq yoki uncha aniq bo'lmagan holda eslab olamiz. Faol tarkibdagi so'zlardan biz bemalol foydalanamiz, ular hamma vaqt bizning "qo'l ostimizda" bo'ladi va xohlagan vaqtda kommunikativ maqsadlarda ishlatilishi mumkin [Bakirova X.B., 2024].

Asarda yana so'zlashuvchilarning nafaol so'z boyligiga leksikaning periferik qatlamlari bo'lgan arxaizmlarni, ba'zi bir o'zlashtirilgan so'zlar va neologizmlarni, professional terminlar, dialektik so'zlar va shu kabilar kiritilsa, umumiy qo'llaniladigan, shu jumladan, kundalik ishlatiladigan leksikani faol so'z boyligi sifatida keltiriladi. Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalari tomonidan chet tilni egallash sharoiti filologik oliy o'quv yurtlari talabalari sharoitidan tubdan farq qiladi. Bu farq faol va nafaol so'z boyligining o'rtasidagi o'zaro munosabatda ko'zga tashlanadi.

Nofilologik yoʻnalish talabalarining soʻz boyligi ona tilidagiga nisbatan bir muncha cheklangan boʻladi shuning uchun nafaol minimumga eng koʻp qoʻllaniladigan soʻzlar kiradi [Bakirova X.B., 2024].

Huddi shunday, tarjimonlik yoʻnalishlari talabalari tomonidan egallanadigan sohaviy leksik minimum talablari ham farqli ahamiyatga ega boʻladi. Tarjimonlik yoʻnalishi talabalari ham filologik yoʻnalsih talabali uchun belgilangan soʻz va soʻz birikmalarini organishlari lozim. Lekin sohaviy tarjimonlar mazkur umumiy leksik minimumga qoʻshimcha ravishda oʻzi tanlagan sohaning terminlarini ham bilishlari kerak boʻladi. Yaʼni texnika sohasi boʻyicha sohaviy tarjimonlar texnika sohasiga oid terminlar: soʻz va soʻz birikmalarini bilshlari, meditsina yoʻnalishi sohaviy tarjimonlari meditsinaga oid terminlar: soʻz va soʻz birikmalarini bilshlari zarur boʻladi. Buning uchun boʻljak sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda har bir soha mutahassisligining mahsus termin soʻz va soʻz birikmalari oqitilib borishi kerak boʻladi.

Til oʻqitish metodikasida bir qator tanlash tamoyillari qabul qilingan. Ular quyidagilar:

- 1) qoʻllanish darajasiga koʻra;
- 2) mavzu boʻyicha;
- 3) bogʻlana olishlik xususiyatiga koʻra;
- 4) qoʻshimchalar orqali soʻz yasay olishlik;
- 5) gap tuzishda tezda ishtirok etish orqali;
- 6) koʻp maʼnoga ega boʻlishligiga koʻra;
- 7) stilistik chegaralanmaslik;
- 8) namunalilik;
- 9) sinonim soʻzlardan bittasini tanlash;
- 10) pedagogik-professional yoʻnalishda boʻlishlik tamoyillari asosida tanlanadi

[Yoqubov I., 2009].

N.D.Galskova va N.I.Geiz barcha tamoyillarni oʻzaro aloqador boʻlgan uchta katta guruhga ajratadi: statistik, lingvistik va metodik.

Birinchi guruhga **statistik tamoyillarni** kiritadilar. Ular soʻzning ishlatilish chastotasini oʻz ichiga oladi [Гальскова Н.Д., 2004].

Ikkinchi guruhga 1948-yilda L.V.Sherba va I.V.Raxmanovlar rahbarligida ishlab chiqilgan **lingvistik tamoyillar** kiritiladi [Шерба Л.В., 2020]. Ular asosiy va qoʻshimcha tamoyillarga boʻlinadi.

Asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi: 1) semantik namunalilik tamoyili, buning asosida eng muhim tushunchalarni aks ettiradigan, maxsus ishlab chiqilgan mavzuga mos keladigan soʻzlar tanlanadi; 2) bogʻlana olishlik tamoyili, unga koʻra eng koʻp kombinatsiyalar hosil qila oladigan leksik birliklar tanlanadi; 3) qoʻshimchalar orqali soʻz yasay olish tamoyili, bunda yangi soʻzlarning shakllanishida faol ishtirok etuvchi soʻzlar tanlanadi.

Qoʻshimcha tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1) stilistik chegaralanmaslik, unga koʻra adabiy tilning ham kitobiy yozma uslubida, ham ogʻzaki nutq uslubida ishlatiluvchi soʻzlarni kiritiladi; 2) koʻp maʼnoga ega boʻlishiga koʻra tamoyili; 3) gap tuzishda tezda ishtirok etish tamoyili [Шерба

Л.Б., 2020].

Uchinchi **metodik tamoyillar** guruhi bilim yurtining o'quv maqsadlari, standartlari va o'quv dasturlariga qaratilgan bo'lib, bunda so'zlar muloqot vaziyatlariga va mavzusiga muvofiqligini inobatga olgan holda tanlanadi [Гальскова Н.Д., Гез Н.И., 2004].

Tarjima nazariyasi va lingvistika sohasida mashhur olim Aleksandr Davidovich Shvaytser tadqiqiga ko'ra tarjima jarayonida ishlatiladigan lug'at birligi uchta asosiy mezon asosida tanlanadi:

1. Chastotasi yuqori bo'lishi – ya'ni, sohaga oid matnlarda eng ko'p uchraydigan so'z va terminlar tanlanadi. Masalan, tibbiy tarjimada “treatment”, “disease”, “symp-tom” kabi birliklar yuqori chastotali hisoblanadi.

2. Semantik yadroga tegishliligi – tanlangan so'zlar sohaga oid asosiy tush-unchalarni ifodalashi kerak. Masalan, yuridik tarjimada “contract”, “liability”, “juris-diction” kabi atamalar asosiy semantik yadro hisoblanadi.

3. Kommunikativ zarurat – tarjimon ushbu terminlarsiz sohaga oid matnni to'liq tushuna olmaydi yoki tarjima qila olmaydi [Швейцер А. Д., 1988].

Bu yondashuv kontrastiv lingvistika va tarjima metodikasida madaniyatlara-ro farqlarni tahlil qilishga katta hissa qo'shgan amerikalik olim Robert A.Ladoning lingvometodik ishlanmalarida ham qayd etilgan. U til o'rganishda minimal lug'at fon-di kommunikativ vazifaga mos ravishda “zaruriy leksik minimum” sifatida tanlanishi lozimligini ta'kidlagan [Lado R., 1974].

Tarjima strategiyalari (literal va kommunikativ yondashuv), madaniy reali-yalarni tarjima qilish usullari va tarjima sifatini baholash borasida chuqur ishlari bilan tanilgan, “A Textbook of Translation” – tarjima amaliyoti va nazariyasiga oid asosiy qo'llanma muallifi, briyaniyalik olim Peter Newmark tarjimini o'qitish jarayonida leksik minimumni tanlashda matn janri, maqsadi va auditoriya ehtiyojlarini hisobga olish muhimligini aytadi. Masalan, ilmiy-texnik matnlar tarjimasida atamalar miqdori badiiy matnlarga nisbatan ancha ko'p bo'ladi [Newmark P., 1988].

“Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained” nomli asar muallifi, mashhur nemis tarjima nazariyotchisi Christiane Nordning fikri-cha, tarjimada so'z tanlash va leksik minimum Skopos nazariyasi asosida aniqlanishi kerak, ya'ni tarjimaning maqsadi (skoposi) qanchalik tor doirada bo'lsa, tanlanadi-gan terminologik minimum ham shunchalik aniq va chegaralangan bo'ladi [Nord C., 2005].

Yana bir mashhur tarjimashunos va tarjima tadqiqotchisi Mona Baker esa ozining “Other Words: A Coursebook on Translation” nomli tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan mualliflik qo'llanmasida tarjimonlarni tayyorlashda matn korpuslari asosida leksik birliklarni statistik tahlil qilish metodini taklif qiladi. Bu usul orqali sohaga oid matnlarda eng ko'p uchraydigan termin va iboralarni aniqlash mumkin [Baker M., 2011].

Respublikamizning tarjimashunos va lingvist olimlari Muhayyo Ubaydul-layeva va Dilnoza Vohidovalar sohaga oid tarjimalarni o'rgatishda terminologik yon-dashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, mutaxassis tarjimon

terminlarning nafaqat lugʻaviy maʼnosini, balki ularning normativ qoʻllanilishi va kontekstual mosligini ham bilishi kerak [Ubaydullayeva M.M., Vohidova D.K., 2015].

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik va adekvatlik masalalari, tarjimada madaniyatlararo tafovutlarni yoritish bilan shugʻullangan olim Toʻlqin Eshbekov esa sohaga yoʻnaltirilgan tarjimada minimal leksik zaxirani shakllantirishda milliy terminologiya va xalqaro ekvivalentlar uygʻunligi muhimligini aytadi. Chunki koʻplab sohalarda terminlar oʻzbek tilida oʻzlashtirilgan shaklda qoʻllanadi va tarjimon ushbu birliklarning ikki xil variantini ham bilishi kerak [Miralimov Sh., Eshbekov T., 2010].

Zokir Islomovning fikricha, tarjimonlarni tayyorlashda leksik minimum nafaqat terminlar bilan, balki sohaviy frazeologizmlar va nutq andozalari bilan boyitilishi lozim. Masalan, yuridik tarjimada *“in accordance with the law”*, *“subject to the provisions of...”* kabi andozaviy iboralarni bilish tarjima sifatini oshiradi [Islomov Z., 2021]. Olimning fikricha tarjimada madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish va terminlarni toʻgʻri moslashtirish zarur.

Yuqoridagi biz keltirgan olimlarning fikrlari tahlili shuni koʻrsatadiki, tarjimonlarni tayyorlash jarayonida leksik minimumni shakllantirish nafaqat tilning umumiy lugʻat boyligini tanlash, balki tarjima maqsadi, matn janri, auditoriya ehtiyoji va madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni talab qiladi.

Peter Newmark matn janri va maqsadiga koʻra terminlar hajmi farq qilishini taʼkidlaydi [Newmark P., 1988]. Christiane Nord [Nord C., 2005] esa Skopos nazariyasi asosida tarjimaning maqsadi qanchalik aniq boʻlsa, tanlanadigan terminologik minimum ham shunchalik chegaralangan boʻlishini koʻrsatadi.

Mona Baker tarjimon tayyorlashda matn korpuslari orqali statistik tahlilni taklif qilib, sohaga oid matnlarda eng koʻp uchraydigan termin va iboralarni aniqlash zarurligini ilgari suradi [Baker M., 2011].

Mahalliy tarjimashunoslar M.M. Ubaydullayeva va D.K. Vohidova terminologik yondashuvning ahamiyatini koʻrsatib, tarjimon terminlarning lugʻaviy maʼnosi bilan birga normativ qoʻllanilishi va kontekstual mosligini ham bilishi kerakligini taʼkidlaydilar [Ubaydullayeva M.M., Vohidova D.K., 2015]. Ergash Ochilov sohaga yoʻnaltirilgan tarjimada milliy terminologiya va xalqaro ekvivalentlarning uygʻunligi zarurligini [Ochilov E., 2021], Zokir Islomov esa leksik minimumni frazeologizmlar va nutq andozalari bilan boyitish tarjima sifatini oshirishini aytadi [Islomov Z., 2021].

Shunday qilib, leksik minimumni tanlashda uch asosiy omil muhim:

1. Kommunikativ ehtiyoj va tarjima maqsadi (Skopos);
2. Matn janri va sohaga xos terminologiya hajmi;
3. Madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish va terminlarni normativ moslashtirish.

Demak, sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda universal lugʻat boyligini tanlash emas, balki sohaga yoʻnaltirilgan terminologiyani, frazeologizmlarni va madaniy realiyalarni uygʻunlashtirgan minimal leksik fond shakllantirish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotchi olimlarning leksik minimumni aniqlash amaliyotidan tanlash jary-

oni quyidagi bosqichlar orqali amalga oshirilishi ma'lum boldi:

1. Soha bo'yicha matn korpusini yaratish. Masalan, texnika sohasidagi ilmiy maqolalar, darsliklar va yo'riqnomalar matnlari yig'iladi.

2. Leksik birliklarning chastotasini aniqlash. Bu jarayonda maxsus dasturiy vositalar yordamida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar ro'yxati tuziladi.

3. Terminlarning kontekstual ishlatilishini tahlil qilish. Har bir termin qanday birikmalarda va uslubda qo'llanishi o'rganiladi.

4. Zaruriy minimumni shakllantirish. Chastotasi yuqori va semantik yadroga kiradigan terminlar tanlab olinadi.

Misol sifatida texnik tarjima uchun leksik minimumda quyidagi birliklar bo'lishi mumkin:

- *Voltage regulation* – kuchlanishni boshqarish
- *Generator unit* – generator qurilmasi
- *Gross domestic product (GDP)* – yalpi ichki mahsulot
- *Thermal power plant* – issiqlik elektr stansiyasi

Iqtisodiy tarjima sohasida esa:

- *Financial accounting* – buxgalteriya hisobi
- *Monetary policy* – pul-kredit siyosati
- *Inflation rate* – inflyatsiya darajasi

Shuningdek, frazeologik minimum ham tarjimon uchun muhimdir. Masalan, tibbiy matnlarda *“to undergo treatment”* (davolanishdan o'tmoq), yuridik matnlarda esa *“to enter into a contract”* (shartnoma tuzmoq) kabi iboralar keng qo'llanadi.

Biz yuqorida tahlil qilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda texnika sohasi sohaviy tarjimonarini tayyorlashda o'qitilishi lozim bo'lgan leksik minimumni quyidagi tamoyillar asosida tanlashni lozim topdik:

- Qo'llanish darajasiga ko'ra ya'ni chastotasi yuqori bo'lgan sohaga oid matnlarda eng ko'p uchraydigan so'z va terminlar;
- Semantik yadroga tegishliligi, yoki semantik namunalilik ya'ni tanlangan so'zlar sohaga oid asosiy tushunchalarni ifodalashiga ko'ra;
- Kommunikativ zarurat ya'ni tarjimon ushbu terminlarsiz sohaga oid matnni to'liq tushunishini taminlashiga ko'ra tanlandi.

Mazkur lug'at minimum muhandislik sohasi sohaviy tarjimonlariga muhandislik terminlarini bosqichma-bosqich o'qitilishini ta'minlash madsadida bakalavr va magistratura yo'nalishlari va kurslari kesimida bosqichlarga ajratildi. Leksik minimum “Muhandislik yo'nalishi sohaviy tarjimonlari uchun lug'at minimum” nomi bilan lug'at shaklida nashr etildi.

Mazkur tadqiqot doirasida respublikamizning to'rtta oliy ta'lim muassasasida tajriba-sinov ishlari olib borildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonida maxsus sohaviy leksik minimumlar ishlab chiqilmaganligi va talabalarning bu borada yetarli bilimga ega emasligi aniqlandi.

Shu boisdan biz texnika sohasi, xususan muhandislik yo'nalishi uchun leksik minimumni tanlab, tizimli ravishda taqdim etishni maqsad qildik. Ushbu tadqiqotning nazariy xulosalari nafaqat texnika sohasi, balki boshqa sohalarda ham leksik mini-

mumni shakllantirish uchun ilmiy-metodik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Leksik minimumni tanlash jarayonida biz asoslangan tanlash tamoyillariga, terminlarning aniq hajmiga va ularni bosqichma-bosqich dars jarayoniga integratsiya qilish usullariga tayanish mumkin. Chunki biz erishgan natijalar ilmiy asoslangan tahlillar asosida qoʻlga kiritildi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, sohaga yoʻnaltirilgan tarjimonlarni tayyorlash jarayonida leksik minimumni aniqlash va bosqichma-bosqich shakllantirish tarjima taʼlimining markaziy boʻgʻini hisoblanadi. Leksik minimum faqatgina “kerakli soʻzlar roʻyxati” emas, balki tarjimonning kommunikativ, kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarini uzviy bogʻlovchi lingvodidaktik model sifatida namoyon boʻladi. Toʻgʻri tanlangan va ilmiy asoslangan leksik minimum sohaviy tarjimonni tayyorlash jarayonini izchil olib borishilishini taʼminlaydi.

Tadqiqot doirasida CEFR standartlari, respublika oliy taʼlim meʼyoriy hujjatlari va mahalliy hamda xorijiy olimlarning nazariy qarashlari solishtirilib, sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimumning miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari qayta koʻrib chiqildi. Natijada 1–4 kurs va magistratura bosqichlari uchun umumiy leksika hamda sohaga oid terminologiyaning bosqichma-bosqich ortib boruvchi tizimi taklif etildi. Bu yondashuv universal leksik roʻyxatni emas, balki til darajasi, kasbiy ehtiyoj va tarjima maqsadi bilan uygʻunlashgan minimal leksik fondni shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Muhandislik sohasi misolida tuzilgan sohaviy leksik minimum soʻzlarni ishlatilish chastotasi, semantik yadro va kommunikativ zarurat tamoyillari asosida tuzildi. Bundan tashqari, korpus lingvistikasi asosida texnik matnlar tahlili shuni koʻrsatdiki, koʻplab terminlar nafaqat lugʻaviy birlik sifatida, balki maʼlum frazeologik birliklar va nutq qoliplari tarkibida faol qoʻllanadi. Shu bois leksik minimum faqat alohida terminlar bilan emas, balki ularning tipik birikmalari, terminologik iboralari va sohaviy terminlari bilan boyitilishi zarurligi asoslandi. Bu esa tarjimaning aniqligi, izchilligi va uslubiy mosligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida oʻqitish jarayonida maxsus sohaviy leksik minimumdan foydalanish talabalarning texnik matnlarni tushunish darajasi, terminologiyani eslab qolish samaradorligi va tarjima sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi aniqlandi. Avval leksik minimumsiz, tasodifiy tanlangan matnlar asosida ishlagan guruhlar bilan, sohaviy minimum asosida bosqichma-bosqich oʻqitilgan guruhlarning natijalari solishtirilganda, ikkinchi guruh talabalari texnik tushunchalarni ancha tez oʻzlashtirgan, terminlarni izchil qoʻllagan va tarjimada kamroq semantik xatolarga yoʻl qoʻyganligi kuzatildi. Bu esa taklif etilgan modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot yakunida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- leksik minimum sohaga yoʻnaltirilgan tarjimonlar tayyorlashda nazariy emas, balki bevosita amaliy natija beruvchi metodik vosita sifatida qaralishi lozim;
- sohaviy tarjimonlar uchun leksik minimum CEFR darajalari, oliy taʼlim standartlari, soha xususiyati va tarjima maqsadi (Skopos)ni hisobga olgan holda miqdoriy

va sifat jihatdan belgilanishi zarur;

- umumiy leksik minimum bilan cheklanib bo'lmaydi, u albatta texnik, tibbiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa sohalar kesimida maxsus termin bloklari bilan to'ldirilishi kerak;

- leksik minimumni ishlab chiqishda qo'llanish chastotasi, semantik yadro va kommunikativ zarurat tamoyillariga asoslanish eng maqsadga muvofiq yondashuv hisoblanadi;

- korpus lingvistikasi va statistik tahlil metodlari leksik minimumni aniqlash jarayonini subyektiv taxminlardan qadamma-qadam ilmiy dalillarga tayangan tizimli jarayonga aylantiradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, leksik minimumni aniqlash bir martalik texnik jarayon emas, balki uzluksiz yangilanib borishi lozim bo'lgan dinamik tizimdir. Fan-texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalar, terminologik yangiliklar va xalqaro standartlar o'zgarishi bilan leksik minimum ham qayta ko'rib chiqilib, to'ldirib borilishi talab etiladi. Shu ma'noda, mazkur tadqiqot natijalari sohaviy tarjima ta'limi uchun boshlang'ich ilmiy platforma bo'lib xizmat qiladi, ammo uni rivojlantirish, kengaytirish va empirik jihatdan yanada chuqurroq tekshirish istiqbollari saqlanib qoladi.

Umuman olganda, leksik minimumni sohaga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich kengayib boruvchi, korpus ma'lumotlari va tarjima maqsadiga moslashtirilgan model sifatida loyihalash tarjimonlarni tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday yondashuv nafaqat talabaning lug'at boyligini ko'paytiradi, balki uning kasbiy tarjima faoliyatini real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash, ilmiy-texnik va kasbiy matnlar bilan erkin ishlash salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 2011. 332 p. URL: <https://nlp.csie.org/~sound/translation.pdf> (accessed 23.11.2025)
2. Bakirova, X. B. *Ingliz tili darslarida bo'lajak muhandislarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish (energetika sohasi terminlari misolida)*. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2024. 213 b.
3. *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)*. URL: <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/table-1-cefr-3.3-common-reference-levels-global-scale> (accessed 19.11.2025)
4. Galskova, N. D., & Gez, N. I. *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: lingvodidaktika i metodika*. Moscow: Akademiya, 2004. 295 p.
5. Islomov, Z. *Chet tillarini o'qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish*. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent: TDPU, 2021. 145 b.
6. Komissarov, V. N. *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. Moscow: Vysshaya shkola, 1990. 253 p. URL: https://lib.ysu.am/disciplines_bk/0280bef0fd45d42c12290f5fd75ca121.pdf (accessed 19.11.2025)
7. Lado, R. *Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1974. 236 p. URL: <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1681306> (accessed 19.11.2025)
8. Miralimov, Sh., & Eshbekov, T. *Jurnalistika. Ma'naviyat*.

- Jamiyat*. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston, 2010. 64 bet.
URL: <https://unilibRARY.uz/literature/593079> (accessed 23.11.2025)
9. Mirolyubov, A. A. (Ed.). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam: traditsii i sovremennost'*. Obninsk: Titul, 2010. 464 p.
10. Nation, I. S. P. *Learning Vocabulary in Another Language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2013. 627 p.
URL: <https://catdir.loc.gov/catdir/samples/cam031/2001269892.pdf> (accessed 19.11.2025)
11. Newmark, P. *Approaches to Translation*. New York: Prentice Hall, 1988. 200 p.
URL: <https://ru.scribd.com/document/274205240/Approaches-to-Translation-NEWMARK> (accessed 19.11.2025)
12. Nord, C. *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. Amsterdam; New York: Rodopi, 2005. 275 p.
URL: <https://www.researchgate.net/publication/271127037> (accessed 23.11.2025)
13. Normuratova, V. I. *Formirovanie retseptivnykh leksicheskikh navykov u studentov-yuristov (na materiale angliyskogo yazyka)*. Candidate of Pedagogical Sciences dissertation. Tashkent, 2008. 198 p.
14. *O'zbekiston Respublikasining davlat standarti. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti*. Toshkent, 2021. 35-2021-son.
URL: <https://old.lex.uz/docs/5705038#5705118> (accessed 14.02.2023)
15. Ochilov, E. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDSHI, 2021. 124 b.
URL: https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/10/Ochilov-tarjima_nazariyasi_va_amaliyoti_0u0ip24.pdf (accessed 23.11.2025)
16. Richards, J. C., & Schmidt, R. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Routledge, 2010. 656 p.
URL: <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315833835> (accessed 19.11.2025)
17. Shcherba, L. V. *Prepodavanie inostrannykh yazykov v shkole*. Moscow: Yurayt, 2020. 148 p.
18. Shveitser, A. D. *Teoriya perevoda: status, problemy, aspekty*. Moscow: Nauka, 1988. 215 p.
URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/shveyz/index.php (accessed 19.11.2025)
19. Tarnopol'skiy, O. B., & Kozhushko, S. P. *Metodika obucheniya angliyskomu yazyku dlya delovogo obshcheniya*. Kyiv: Lenvit, 2004. 192 p.
20. Ubaydullaeva, M. M., & Vohidova, D. K. *Sohaviy tarjimada terminologik yondashuv*. Toshkent, 2015. 210 b.
21. Yoqubov, I. *Amaliy ingliz tili metodikasi*. Toshkent, 2009. 285 b.
22. Zimnyaya, I. A. *Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam v shkole*. Moscow: Prosveshchenie, 1991. 222 p.
URL: <https://psychlib.ru/mgppu/ZPo-1991/ZPo-223.htm> (accessed 19.11.2025)
23. Ochilov, E. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDSHI, 2021. 124 b.
URL: https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/10/Ochilov-tarjima_nazariyasi_va_amaliyoti_0u0ip24.pdf (accessed 23.11.2025)
24. Richards, J. C., & Schmidt, R. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Routledge, 2010. 656 p.
URL: <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315833835> (accessed 19.11.2025)
25. Shcherba, L. V. *Prepodavanie inostrannykh yazykov v shkole*. Moscow: Yurayt, 2020. 148 p.
26. Shveitser, A. D. *Teoriya perevoda: status, problemy, aspekty*. Moscow: Nauka, 1988. 215 p.
URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/shveyz/index.php (accessed 19.11.2025)
27. Tarnopol'skiy, O. B., & Kozhushko, S. P. *Metodika obucheniya angliyskomu yazyku dlya*

- delovogo obshcheniya*. Kyiv: Lenvit, 2004. 192 p.
28. Ubaydullaeva, M. M., & Vohidova, D. K. *Sohaviy tarjimada terminologik yondashuv*. Toshkent, 2015. 210 b.
 29. Yoqubov, I. *Amaliy ingliz tili metodikasi*. Toshkent, 2009. 285 b.
 30. Zimnyaya, I. A. *Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam v shkole*. Moscow: Prosveshchenie, 1991. 222 p.
URL: <https://psychlib.ru/mgppu/ZPo-1991/ZPo-223.htm> (accessed 19.11.2025)
 31. REFERENCES
 32. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge, 2011. 332 p.
URL: <https://nlp.csie.org/~sound/translation.pdf> (accessed 23.11.2025)
 33. Bakirova, X. B. *Developing the lexical competence of future engineers in English classes (based on energy-sector terminology)*. PhD dissertation in Pedagogical Sciences. Tashkent, 2024. 213 p.
 34. *Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)*.
URL: <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/table-1-cefr-3.3-common-reference-levels-global-scale> (accessed 19.11.2025)
 35. Galskova, N. D., & Gez, N. I. *Theory of foreign language teaching: Linguodidactics and methodology*. Moscow: Akademiya, 2004. 295 p.
 36. Islomov, Z. *Developing intercultural communicative competence in foreign language teaching*. PhD dissertation in Philological Sciences. Tashkent: TDPU, 2021. 145 p.
 37. Komissarov, V. N. *Translation theory (linguistic aspects)*. Moscow: Vysshaya Shkola, 1990. 253 p.
URL: https://lib.y-su.am/disciplines_bk/0280bef0fd45d42c12290f5fd75ca121.pdf (accessed 19.11.2025)
 38. Lado, R. *Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1974. 236 p.
URL: <https://www.scrip.org/reference/referencespapers?referenceid=1681306> (accessed 19.11.2025)
 39. Miralimov, Sh., & Eshbekov, T. *Journalism. Spirituality. Society. Study guide*. Tashkent: Uzbekistan, 2010. 64 p.
URL: <https://unilibrary.uz/literature/593079> (accessed 23.11.2025)
 40. Mirol'yubov, A. A. (Ed.). *Methods of foreign language teaching: Traditions and modernity*. Obninsk: Titul, 2010. 464 p.
 41. Nation, I. S. P. *Learning Vocabulary in Another Language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press, 2013. 627 p.
URL: <https://catdir.loc.gov/catdir/samples/cam031/2001269892.pdf> (accessed 19.11.2025)
 42. Newmark, P. *Approaches to Translation*. New York: Prentice Hall, 1988. 200 p.
URL: <https://ru.scribd.com/document/274205240/Approaches-to-Translation-NEWMARK> (accessed 19.11.2025)
 43. Nord, C. *Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis*. Amsterdam; New York: Rodopi, 2005. 275 p.
URL: <https://www.researchgate.net/publication/271127037> (accessed 23.11.2025)
 44. Normuratova, V. I. *Developing receptive lexical skills in law students (based on the English language)*. Candidate of Pedagogical Sciences dissertation. Tashkent, 2008. 198 p.
 45. Republic of Uzbekistan. *State Educational Standard of Higher Education*. Tashkent, 2021. Standard No. 35-2021.
URL: <https://old.lex.uz/docs/5705038#5705118> (accessed 14.02.2023)
 46. Ochilov, E. *Translation theory and practice*. Study guide. Tashkent: TDSHI, 2021. 124 p.
URL: https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/10/Ochilov-tarjima_nazariyasi_va_amaliyoti_Ou0ip24.pdf (accessed 23.11.2025)
 47. Richards, J. C., & Schmidt, R. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Routledge, 2010. 656 p.

- URL: <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315833835> (accessed 19.11.2025)
48. Shcherba, L. V. *Teaching foreign languages at school*. Moscow: Yurayt, 2020. 148 p.
49. Shveitser, A. D. *Translation theory: Status, problems, and aspects*. Moscow: Nauka, 1988. 215 p.
URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/shveyz/index.php (accessed 19.11.2025)
50. Tarnopol'skiy, O. B., & Kozhushko, S. P. *Methods of teaching English for business communication*. Kyiv: Lenvit, 2004. 192 p.
51. Ubaydullaeva, M. M., & Vohidova, D. K. *Terminological approach in specialized translation*. Tashkent, 2015. 210 p.
52. Yoqubov, I. *Methods of teaching practical English*. Tashkent, 2009. 285 p.
53. Zimnyaya, I. A. *Psychology of foreign language learning at school*. Moscow: Prosveshchenie, 1991. 222 p.
URL: <https://psychlib.ru/mgppu/ZPo-1991/ZPo-223.htm> (accessed 19.11.2025)
54. Ochilov, E. *Translation theory and practice*. Study guide. Tashkent: TDSHI, 2021. 124 p.
URL: https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/10/Ochilov-tarjima_nazariyasi_va_amaliyoti_0u0ip24.pdf (accessed 23.11.2025)
55. Richards, J. C., & Schmidt, R. *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Routledge, 2010. 656 p.
URL: <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315833835> (accessed 19.11.2025)
56. Shcherba, L. V. *Teaching foreign languages at school*. Moscow: Yurayt, 2020. 148 p.
57. Shveitser, A. D. *Translation theory: Status, problems, and aspects*. Moscow: Nauka, 1988. 215 p.
URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/shveyz/index.php (accessed 19.11.2025)
58. Tarnopol'skiy, O. B., & Kozhushko, S. P. *Methods of teaching English for business communication*. Kyiv: Lenvit, 2004. 192 p.
59. Ubaydullaeva, M. M., & Vohidova, D. K. *Terminological approach in specialized translation*. Tashkent, 2015. 210 p.
60. Yoqubov, I. *Methods of teaching practical English*. Tashkent, 2009. 285 p.
61. Zimnyaya, I. A. *Psychology of foreign language learning at school*. Moscow: Prosveshchenie, 1991. 222 p.
URL: <https://psychlib.ru/mgppu/ZPo-1991/ZPo-223.htm> (accessed 19.11.2025)